



World Conference on Social Sciences, Law and Public Policy

Hosted Online from Toronto, Canada

Date: 26th February 2026

Website: <https://econferencia.com>

JINOYAT PROTSESSIDA HIMOYACHILARNI JALB ETISH XARAJATLARINI QOPLASH: MUAMMO VA YECHIMLAR

Bozorov Maqsudali Maxmudovich

Toshkent davlat yuridik universitetining
jinoyat-protsessual huquqi kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada jinoyat protsessida davlat hisobidan tayinlangan himoyachilar ishtiroki bilan bog‘liq protsessual xarajatlarning huquqiy tabiati, ularni mahkumlardan undirish mexanizmlaridagi mavjud kamchiliklar hamda qonunchilikni takomillashtirish yo‘nalishlari tahlil qilingan. Xorijiy davlatlar tajribasi qiyosiy-huquqiy tahlil asosida O‘zbekiston amaliyotini takomillashtirish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: protsessual xarajatlar, davlat hisobidan yuridik yordam, himoyachi ishtiroki, xarajatlarni undirish, advokat xizmatlari, jinoyat protsessi.

O‘zbekiston Respublikasida advokatura institutini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada advokatlarning huquqiy maqomi sudya va prokurorlarnikidek alohida mustahkamlanib, advokaturaga bag‘ishlangan maxsus bob kiritilgani (141-142-moddalar) bu sohaga qaratilgan e‘tiborning kuchayganligidan dalolat beradi.

Konstitutsiyaning 28-moddasi ayblanuvchiga o‘zini himoya qilish uchun barcha imkoniyatlarni ta‘minlash, 29-moddasi esa har kimga malakali yuridik yordam olish huquqini kafolatlaydi. Ushbu konstitutsiyaviy tamoyillarni amalga oshirish uchun Jinoyat-protsessual kodeksi (JPK) 24-moddasida gumon qilinuvchi,



World Conference on Social Sciences, Law and Public Policy

Hosted Online from Toronto, Canada

Date: 26th February 2026

Website: <https://econferencia.com>

ayblanuvchi va sudlanuvchilarga davlat hisobidan yuridik yordam olish huquqi belgilab qo'yilgan.

Biroq amaliyotda davlat byudjeti mablag'lari hisobidan advokatlarni jalb etish bilan bog'liq xarajatlarni keyinchalik mahkumlardan undirish mexanizmi yetarlicha ishlamasligi tufayli yirik miqdordagi davlat mablag'lari qaytarilmasdan qolmoqda. Mazkur muammo qonunchilikdagi noaniqliklar va amaliyotchilarning mavjud normalarni noto'g'ri talqin qilishlari natijasida yuzaga kelmoqda.

JPKning 49-moddasiga ko'ra, himoyachi gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchilarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qiluvchi, ularga zarur yuridik yordam ko'rsatuvchi shaxsdir. Ishda himoyachilar sifatida faqat advokatlar ishtirok yetishlari mumkin (ayrim hollarda yaqin qarindoshlar ham advokat bilan birgalikda qatnashishi yo'l qo'yiladi).

JPKning 50-moddasi himoyachining ishda ishtirok yetishining ikki asosini belgilaydi:

Shartnoma asosida– gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi yoki ularning qonuniy vakillari taklifi bo'yicha;

Tayinlash asosida – surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud qarori yoxud ajrimiga asosan "Davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish to'g'risida"gi Qonunda belgilangan tartibda.

JPKning 51-moddasida himoyachining majburiy ishtiroki talab qilinadigan o'n uchta holat ko'rsatilgan. Agar gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o'zi himoyachi taklif qilmagan bo'lsa, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud davlat hisobidan advokat tayinlashni ta'minlashi shart.

"Davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish to'g'risida"gi Qonunning 9-moddasida jinoyat ishi bo'yicha advokat ishtiroki majburiy bo'lgan hollarda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchilar davlat hisobidan yuridik



World Conference on Social Sciences, Law and Public Policy

Hosted Online from Toronto, Canada

Date: 26th February 2026

Website: <https://econferencia.com>

yordam olish huquqiga ega ekanligi belgilangan. Qonunning 26-moddasiga ko‘ra, bu xarajatlarni Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladi.

Amalda jarayon quyidagicha kechadi:

Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida qaror qabul qiladi, sud esa ajrim chiqaradi;

Qaror yoki ajrim "Yuridik yordam" axborot tizimiga kiritiladi;

Advokat avtomatik ravishda tanlanadi va ishga kirishish uchun kamida to‘rt soat vaqt beriladi;

Advokat ko‘rsatgan xizmatlar uchun to‘lov davlat byudjetidan amalga oshiriladi.

JPKning 318-moddasi 1-qismining 4-bandiga muvofiq, protsessual chiqimlar tarkibiga sudlanuvchi to‘lovdan ozod qilingan taqdirda himoyachiga to‘lanadigan haq kiradi. Ushbu norma advokatga davlat hisobidan to‘langan summalarning protsessual xarajat ekanligini aniq ko‘rsatadi.

JPKning 320-moddasi 1-qismi protsessual chiqimlarni, shu jumladan advokatga to‘langan to‘lovni ham mahkumdan undirish imkoniyatini nazarda tutadi. Biroq amaliyotda bu mexanizm deyarli ishlamayapti.

Asosiy muammo shundaki, amaliyotchilar tomonidan davlat hisobidan yuridik yordam “bepul yordam” deb noto‘g‘ri tushunilmoqda. Natijada:

Tergovchilar va surishtiruvchilar advokat xizmatlari uchun to‘langan summalarni ayblov xulosasi yoki ayblov dalolatnomasiga ilova qilmaydilar;

Sudlar hukm chiqarishda ushbu xarajatlarni hisobga olmaydilar va mahkumdan undirmaydilar;

Davlat byudjeti mablag‘lari qaytarilmasdan qoladi.

Vaholanki, qonunchilikda mexanizm mavjud – faqat uni to‘g‘ri qo‘llash zarur.

Qiyosiy-huquqiy tahlil ko‘rsatadiki, ko‘pchilik davlatlarda davlat hisobidan tayinlangan advokat xizmatlari uchun xarajatlarni mahkumdan undiriladi:



World Conference on Social Sciences, Law and Public Policy

Hosted Online from Toronto, Canada

Date: 26th February 2026

Website: <https://econferencia.com>

Rossiya Federatsiyasi. JPKning 132-moddasi davlat tomonidan tayinlangan himoyachi xarajatlarini protsessual chiqim deb belgilaydi va ularni umumiy qoidaga ko‘ra mahkumdan undirishni nazarda tutadi.

Qozog‘iston Respublikasi. JPKning 177-moddasi advokat tayinlangan hollarda yuridik yordam uchun to‘lanadigan summalarni protsessual chiqim sifatida bayon etadi. 174-modda esa bu xarajatlarning dastlab davlat byudjetidan qoplanishini, keyinchalik esa mahkumdan undirilishini ko‘rsatadi.

Belarus Respublikasi. JPKning 163-moddasiga asosan himoyachining ishda ishtiroki bilan bog‘liq barcha xarajatlar mahkumdan undiriladi.

Gruziya, Latviya, Estoniya respublikalari ham jinoyat-protsessual qonunchiligida davlat hisobidan yuridik yordam xarajatlarini mahkum tomonidan qoplash mexanizmlarini belgilagan.

Shunday qilib, xalqaro amaliyot davlat mablag‘larini qaytarish tizimini yaqqol namoyish yetadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2009 yil 24 noyabrdagi 13-son qarori “Jinoyat ishlari bo‘yicha protsessual chiqimlarni undirish amaliyoti to‘g‘risida”da quyidagi muhim qoidalar belgilangan:

Advokat xizmatiga to‘lanadigan summalar, agar mahkum huquqiy yordam uchun haq to‘lashdan ozod etilgan bo‘lsa, protsessual chiqim hisoblanadi va davlat hisobiga o‘tkaziladi;

Sudlar protsessual chiqimlarni undirishda JPK bilan birga “Davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi Qonun va tegishli Nizomga rioya qilishlari lozim.

Biroq, “Davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi Qonunda va tegishli Nizomda ushbu xarajatlarning keyinchalik mahkumdan undirilishiga doir aniq normalar mavjud emas. Bu normativ hujjatlar asosan davlat tomonidan



World Conference on Social Sciences, Law and Public Policy

Hosted Online from Toronto, Canada

Date: 26th February 2026

Website: <https://econferencia.com>

advokatlarga to'lov mexanizmini tartibga soladi, xarajatlarni qaytarish masalasiga esa teginmaydi.

Natijada sudlar va tergov organlari vakillari qaysi hujjatga asoslanib xarajatlarni undirishni aniq bilmaydilar.

Mavjud kamchiliklarni bartaraf yetish va davlat mablag'larini samarali boshqarish maqsadida quyidagi chora-tadbirlar taklif yetiladi:

JPKning 318-moddasini kengaytirish. Hozirgi vaqtda 4-band faqat "sudlanuvchi" bilan bog'liq xarajatlarni nazarda tutadi. Uni quyidagicha o'zgartirish zarur:

4) dastlabki tergov va surishtiruv bosqichida gumon qilinuvchi va ayblanuvchi, shuningdek sud muhokamasida sudlanuvchi to'lovdan ozod qilingan taqdirda yuridik yordam ko'rsatganlik uchun himoyachiga to'lanadigan haq."

Bunda tergovchilar va surishtiruvchilar davlat hisobidan to'langan barcha summalarni ayblov xulosasi (380-modda) va ayblov dalolatnomasiga (381¹²-modda) ilova qilib sudga yuborishlari majburiy qilinishi kerak.

JPKning 320-moddasini aniqlashtirish. Protsessual xarajatlarni undirish mexanizmini batafsil bayon yetish, mahkumning moddiy ahvolini hisobga olgan holda to'lovdan to'liq yoki qisman ozod qilish shartlarini aniq belgilash.

2. "Davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish to'g'risida"gi Qonunni to'ldirish, ya'ni *"Jinoyat protsessida ko'rsatilgan yuridik yordam uchun davlat byudjetidan to'langan mablag'lar protsessual xarajat hisoblanadi va Jinoyat-protsessual kodeksda belgilangan tartibda mahkumdan undiriladi. Mahkum moddiy ahvoli qiyin bo'lgan taqdirda, sud xarajatlarni to'lashdan to'liq yoki qisman ozod qilishi mumkin."*

3. Oliy sud Plenumi qarorini takomillashtirish yuzasidan Davlat hisobidan to'langan advokat xizmatlari xarajatlarini hisoblash tartibi;



World Conference on Social Sciences, Law and Public Policy

Hosted Online from Toronto, Canada

Date: 26th February 2026

Website: <https://econferencia.com>

Tergovchilar tomonidan xarajatlar to'g'risida ma'lumotlarni ayblov xulosasiga ilova qilish majburiyati;

Sudlar tomonidan ushbu xarajatlarni hukm chiqarishda hisobga olish va mahkumdan undirish tartibi;

Mahkumning moddiy ahvolini baholash mezonlari va to'lovdan ozod qilish asoslari belgilanishi.

4. Axborot tizimlarini integratsiyalash

“Yuridik yordam” axborot tizimini sud-tergov organlari foydalanadigan “E-material”, “E-sud” va boshqa elektron dasturlar bilan integratsiyalash. Bu quyidagilarni avtomatlashtiradi:

Advokat xizmatlari xarajatlarini hisoblash;

tegishli ma'lumotlarni ayblov xulosasi va hukm hujjatlariga kiritish;

xarajatlarni undirish jarayonini nazorat qilish;

statistik ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish.

Jinoyat protsessida davlat hisobidan tayinlangan himoyachilar xizmatlari uchun xarajatlarni mahkumlardan undirish masalasi dolzarb muammo bo'lib qolmoqda.

Qonunchilikda asosiy mexanizmlar mavjud bo'lsa-da, ularning amalga oshirilishida jiddiy kamchiliklar mavjud.

JPK normalarining faqat sudlanuvchilarga qaratilganligi;

Davlat hisobidan yuridik yordam to'g'risidagi qonunchilikda xarajatlarni qaytarish mexanizmining yo'qligi;

Amaliyotchilarning mavjud normalarni noto'g'ri talqin qilishlari;

Axborot tizimlari o'rtasida bog'lanishning yo'qligi.

Taklif yetilgan chora-tadbirlarning kompleks amalga oshirilishi:

Davlat byudjeti mablag'larini qaytarish tizimini samarali ishlashini ta'minlaydi;

Advokatlarning ishidagi shaffoflikni oshiradi;

Sud-tergov organlari faoliyatini mukammallashtiradi;



World Conference on Social Sciences, Law and Public Policy

Hosted Online from Toronto, Canada

Date: 26th February 2026

Website: <https://econferencia.com>

Jinoyat adolat tizimiga ishonchni mustahkamlaydi.

Xorijiy davlatlar tajribasi ko‘rsatadiki, davlat hisobidan to‘langan yuridik yordam xarajatlarini mahkumlardan undirish mexanizmi davlat byudjeti samaradorligini oshirishning muhim vositasidir. O‘zbekiston ham ushbu xalqaro amaliyotga mos tizimni shakllantirishi zarur.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023-yil yangi tahriri).
2. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi.
3. "Davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2009-yil 24- noyabrdagi 13-son qarori.
5. Rossiya Federatsiyasi, Qozog‘iston Respublikasi, Belarus Respublikasi, Gruzuya, Latviya va Estoniya respublikalarining jinoyat-protsessual qonunchiligi.